




SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**SURXONDARYO VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024- YIL YANVAR-OKTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



**Tel.: 76-225-65-76
www.surxonstat.uz**


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 9521,5 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 89,8 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Termiz shahri (15,5 %), Jarqo'rg'on tumani (11,6 %), Denov tumani (10,0 %), Sherobod tumani (9,1 %) hamda Sho'rchi tumani (8,9 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Angor tumanida (116,4 %), Bandixon tumanida (112,1 %) hamda Muzrabot (110,4 %) tumanlarida kuzatildi.



*2024- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 312,9 mlrd. so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 2,9 % ga to‘g‘ri keldi.




2,9 %

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



Yanvar-oktabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr	2024-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	279,2	528,6	249,4
Neft, ming t.	66,6	58,9	- 7,7
Qattiq tuz, ming t.	19,7	19,5	- 0,2
Chaqiq tosh, ming t.	19,2	53,7	34,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9521,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 89,8 % ni tashkil etdi.




*2024- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Paxta chigit	Paxta tolasi	Sement
2024-y. 51,3	2024-y. 159,7	2024-y. 86,5
2023-y. 127,4	2023-y. 130,9	2023-y. 270,0
2022-y. 34,5	2022-y. 83,7	2022-y. 295,0
O'simlik yog'i (tozalangan)		
2024-y. 87,5	2024-y. 63,9	2024-y. 133,5
2023-y. 94,6	2023-y. 29,1	2023-y. 31,4
2022-y. 85,0	2022-y. 3,0 m.	2022-y. 91,8
Tuz		
Yumshoq bug'doy va spelta uni		

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 % ni (2023-yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,9 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,1 % (27,7 %), quyi texnologiyali 71,1 % (58,5 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 42,2 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 19,1 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushi – 10,9 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish ulushi – 8,1 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,3 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 2,8% (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 83,0 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 97,1 ming l 100% l spirit aroq (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 10,5 % ga kamaygan), 110,8 ming l uzum vinosi (16,7 % kamaygan), paxta tolasi 25,0 ming. t (59,7 % ga ko'paygan) hamda 37,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (33,5 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr	2024-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Aroq, ming l 100%li spirit	108,5	97,1	-11,4
Uzum vinosi ,ming l	133,0	110,8	-22,2
Paxta tiviti, tonna	2609	1771	-838
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	28,0	37,4	9,4
Paxta tolasi, ming t.	15,7	25,0	9,3

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 233,9 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 161,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga ornatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 1153,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



*2024- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,4 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 1877,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 257,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 150,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.




*2024- yil ma‘lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 37,8 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,7 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 4005,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 111,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 455,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.




*2024- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 263,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 33,2 mld. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 79,0 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 260,0 mld. so'mga to'g'ri keldi.




*2024-yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan


Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 600,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ini) tashkil etgan.



*Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmidagi ulushi*




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 147,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 96,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr	2024-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	395,0	582,7	187,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	19,5	18,9	- 0,6
Quyosh elektr stantsiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln kVts	-	4,1	4,1

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 173,6 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʼish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʼtgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishvlov berish va suv quvurlari boʼyicha taqsimlash boʼyicha xizmatlar 54,7 % ga , oqova suvlarni yoʼqotish, transportirovka qilish va ishvlov berish boʼyicha xizmatlarda 4,5 % ga koʼpayish kuzatildi.

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023-yil yanvar-oktabr</i>	<i>2024-yil yanvar-oktabr</i>	<i>Farqi +/-</i>
Oqova suvlarni yoʼqotish, transportirovka qilish va ishvlov berish boʼyicha xizmatlar, mldr.soʼm	6,6	6,9	0,3
Suvga ishvlov berish va suv quvurlari boyicha taqsimlash boyicha xizmatlar- mldr.soʼm	49,6	76,7	27,1

(oʼtgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga koʼra